

KO‘CHMAS MULK OB’EKLARI AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA O‘TKAZISHNING TASHKILIY VA USLUBIY MASALALARI

**K.B.Urazov SamISI prof.
G‘O‘Abduxonov SamISI magistrant**

Annotatsiya. Ko‘chmas mulk ob’ektlari auditini xalqaro standartlar asosida o‘tkazishning tashkiliy va uslubiy masalalari tadqiq qilingan.

Kalit so‘zlar: Ko‘chmas mulk, mol-mulk solig‘igi, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi, davlat byujeti, soliq kodeksi.

Абстрактный. Изучены организационно-методические вопросы проведения аудита объектов недвижимости на основе международных стандартов.

Ключевые слова: недвижимость, налог на имущество, международные стандарты, бухгалтерский учет, государственный бюджет, налоговый кодекс.

Abstract. The organizational and methodological issues of conducting the audit of real estate objects based on international standards have been studied.

Key words: Real estate, property tax, international standards, accounting, state budget, tax code.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashda iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi bo‘lgan fiskal siyosatning ahamiyatini alohida e’tirof etish lozim. Fiskal siyosat moliyaviy siyosatning tarkibiy qismi hisoblanadi

Ko‘chmas mulkni sotish, investitsiya sifatida kiritish ko‘chmas mulklar kirimini hisobga olishning to‘g‘riligini tekshirishdan maqsad sotib olingan ko‘chmas mulklar hisobda to‘g‘ri aks ettirilganligini va foydalanishga topshirilgan ob’ektlarning real qiymatini ifodalashini tasdiqlashdan iborat.

Tekshiruvning ushbu bosqichida quyidagi amallarni bajarish zarur:

sotib olingan ko'chmas mulklar ob'ektlarining ro'yxatini (miqdori va qiymati ko'rsatilgan holda) olish, olingan ma'lumotlarni 0110-0190 schyotlarning debet oborotlari bilan taqqoslash;

yangidan sotib olingan ko'chmas mulklar ob'ektlarining jismonan mavjudligi va dastlabki hujjatlarini tekshirish

foydalanshga topshirilgan ko'chmas mulklar ob'ektlarining qiymati buxgalteriya hisobi schyotlarida tegishli tarzda aks ettirilganligini aniqlash

soliq qonunchiligining tegishli qoidalariga rioya qilinganligini aniqlash

1-rasm. Ko'chmas mulkni kirimi va chiqmi auditni o'tkazishning umumiyl tartibi.

Ko'chmas mulklarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish mijoz-korxona faoliyati umumiyl auditining bir qismi hisoblanadi. Uning maqsadi buxgalteriya hisoboti ko'chmas mulklar bo'limining ishonchliligi to'g'risida fikr shakllantirish va korxonada ko'chmas mulklar bilan bog'liq muomalalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish uslubiyotini tashkil etishning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlashdan iborat.

Buxgalteriya balansi
va hisobotning boshqa
shakllarining
ko'rsatkichlari

Bosh kitob
ma'lumotlari

Analitik hisob
registrleri va qayd
etish jurnallari
ma'lumotlari

Xo'jalik faoliyati
ko'rsatkichlarini
tasdiqlovchi
boshlang'ich hujjatlar

2-rasm. Auditni o'tkazishning umumiyl metodologik tartibi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilinishi, shuningdek, quyidagi ishlar oldinma-ketin bajarilishi kerak.

1. Auditning aniq ob’ektlari va ularni tekshirish ketma-ketligi belgilanadi. Ob’ektlarni tekshirishda ketma-ketlikni to‘g‘ri tanlash ham katta rol o‘ynaydi, chunki ob’ektlar ham hisob nuqtai nazaridan bir-biri bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

2. Har bir ob’ekt bo‘yicha tekshirish testlari tuzib chiqiladi va ular bo‘yicha isbot-u dalillar to‘planadi.

3. Har bir ob’ekt bo‘yicha tekshirish natijasi aniqlanadi , ya’ni auditor tekshirgan ob’ekt bo‘yicha hisob ma’lumotining to‘g‘riligini tasdiqlaydi yoki unda qanchalik chetlanish borligini isbotlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Ваҳобов А.В, Жўраев А.С. Солиқлар ва солиққа тортиш.- Т.: Шарқ, 2009;
- 2.Гатаулин Ш .Налоги и налогообложение. Учебное пособие. Т., Государственный налоговый комитет, 1996;
- 3.Завалишина И. А. Налоги : теория и практика . - Т.: “Мир экономики и права”, 2004 год;
- 4.Зайналов Ж. Солиқлар ва солиққа тортиш. - Самарқанд, 2002;
- 5.Тошмуродов Т.Солиқ назарияси ва тизими.-Т.:”Билим”, 2004 йил 112– бет;
- 6.Яхёев Қ. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти. Т.: «Фофур Ғулом», 2000.
- 8.Пўлатов, Х. Ў., & Абдугаппаров, Ш. А. (2022). БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИННИГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТИДА ФОЙДА СОЛИФИННИГ ХИСОБЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. Экономика и социум, (5-1 (96)), 593-596.
- 9.Пўлатов, Х. Ў., & Абдурасолов, Ж. А. (2022). ИНТЕЛЛЕКТУАЛ МУЛК ХИСОБНИ АЙРИМ МАСАЛЛАРИ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 679-682.
- 10.Пўлатов, Х. Ў. (2021). УЛГУРЖИ САВДО КОРХОНАЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и социум, (4-2 (83)), 318-323.
- 11.Пўлатов, Х. Ў. (2021). ТУРЛИ ФАОЛИЯТ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ КОРХОНАЛАРДА ТОВАР АЙЛАНМАСИ ХИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Экономика и социум, (5-2 (84)), 186-189.